

**Autsorsing shartlari asosida xizmatlarni ko'rsatish bo'yicha NAMUNAVIY SHARTNOMA №3**

2022 y. «10» 5

Qarshi sh.

**Qarshi shahar tibbiyot birlashmasi** nomidan nizom asosida faoliyat yurituvchi tashkilot rahbari v.v.b **R.Usmonova** (keying o'rinlarda buyurtmachi deb ataladi) bir tomondan va **Marjona Fayz Savdo Qurilish X/K** nomidan ustav (ishonchnoma) asosida faoliyat yurituvchi direktor **E.Chorshanbiyev** (keying o'rinlarda Autsorser deb ataladi), ikkinchi tamondan keyinchalik tamonlar deb ataladi, ushbu shartnomani quyidagilar to'g'risida tuzdilar

**I. Shartnoma predmeti**

1.1. Autsorser Buyurtmachining buyurtmasi bo'yicha mazkur Shartnomaning 1.2-bandida ko'rsatib o'tilgan xizmatlarni ko'rsatish, Buyurtmachi esa ushbu xizmatlar uchun pul to'lash majburiyatini oladi.

1.2. Autsorser mazkur shartnomaning 1.3-bandida ko'rsatilgan muddatdan boshlab, u tugaguniga qadar har kuni Buyurtmachini **kir yuvish xizmati bilan ta'minlash** hamda O'zbekiston Respublikasining normativ-huquqiy hujjatlari bilan belgilangan sanitariya-gigiyena normalari va qoidalariga rioya etgan holda, Buyurtmachi bilan kelishilgan buyurtmalarni bajarish jadvaliga muvofiq ta'minlash majburiyatini, keyingi o'rinlarda Xizmatlar deb ataladi, o'z zimmasiga oladi.

1.3. Xizmat ko'rsatish muddati:

-2022yil «07» 05 dan.

-2022 yil «12» 31gacha.

1.4. Tomonlar bajarilgan ishlarning yig'ma dalolatnomasi va Autsorser tomonidan amalda ko'rsatilgan Xizmatlar uchun belgilangan tartibda rasmiylashtirilgan hisob-faktura imzolaniib Buyurtmachi Autsorserning mazkur Shartnomada ko'rsatilgan bank hisob-raqamiga pul mablag'lari o'tkazgandan so'ng Xizmatlar ko'rsatilgan deb hisoblanadi.

**II. Tomonlarning huquq va majburiyatlari**

2.1. Autsorser quyidagi huquqlarga ega:

Ijaraga olingan mol-mulkdan foydalanish;

Ijaraga olingan bino va inshootlarning ichki va tashqi qismida texnik jihatdan jihozlash va ta'mirlash ishlarini amalga oshirish;

Xizmatlar tannarxining o'zgarishi munosabati bilan shartnomaga o'zgartirish kiritish taklifi bilan chiqish;

Ko'rsatilgan xizmatlar uchun o'z vaqtida to'lovlar amalga oshirilishini talab qilish;

Ko'rsatilgan xizmatlar natijasida foyda olish;

Buyurtmachidan shartnoma shartlarining bajarilishini talab qilish;

Qonun hujjatlariga muvofiq boshqa huquqlar.

2.2. Autsorser quyidagilarga majbur:

Ijaraga olingan bino va inshootlar, jihozlardan maqsadli hamda oqilona foydalanishi, saqlashi, nosoz holga kelganda ularni o'z hisobidan ta'mirlashi, shuningdek, kommunal xarajatlarini qoplashi;

Autsorsing xizmatini ko'rsatishda texnika, yong'in, mehnat muhofazasi hamda sanitariya qoidalari, normalari va gigiyena normativlariga qat'iy rioya etishi;

Tovar (ishlar, xizmatlar)ning sifatli ishlab chiqarilishini va buyurtmachiga yetkazilishini ta'minlashi;

Maxfiylik tartibiga qat'iy rioya qilishi;

Shartnomani bekor qilish haqida buyurtmachini ikki oy oldin yozma ravishda ogohlantirish, ushbu muddat tugaguniga qadar esa buyurtmachining tegishli xizmatlarini uzluksiz tashkil etishni ta'minlashi;

Xizmatlarni sifatli, mazkur Shartnomaning 1.3-bandida ko'rsatilgan muddatda va to'liq hajmda ko'rsatishi;

Xizmatlar ko'rsatish jarayonida Autsorser mazkur shartnoma shartlariga amal qilmasdan, xizmatlar sifatining yomonlashuviga olib kelgan barcha kamchiliklarni Buyurtmachining talabi bo'yicha bir kun davomida bepul to'g'rilashi;

Xizmatlarning sifatsizligi, xizmatlarni bajarish uchun vaqtincha foydalanishga beriladigan ishlab chiqarish (xizmat ko'rsatish) xonalari holati, shuningdek, tegishli inventarlarning sanitariya qoidalariga javob bermasligi aniqlanganda, Autsorser zudlik bilan Buyurtmachining aniqlangan kamchiliklarni bartaraf etish bo'yicha qonuniy talabini bajarishi;

Malakali, tajribali, qo'yilgan vazifani (xizmatni, ishni) amalga oshirish huquqini beruvchi tegishli hujjatlari mavjud bo'lgan, shuningdek, belgilangan tartibda va muddatda tibbiy tekshiruvdan (ko'rikdan)

gan xodimlarga (talab etilgan hollarda) xizmatlarni bajarish jarayoniga ruxsat etishi;

Xodimlar zimmasiga Buyurtmachining hududida odob-axloq qoidalariga, shuningdek, ichki tartibga rioya qilish majburiyatini yuklashi;

Xizmat ko'rsatish bo'yicha ishlarni shaxsan bajarishi, mazkur Shartnoma shartlarini bajarishni uchinchi shaxsga topshirmasligi;

Mazkur shartnoma shartlarini bajarish doirasida Buyurtmachi tomonidan vaqtincha foydalanishga topshirilgan uskunalar, jihozlar, idishlar, asboblari, mebellar, inventarlar va boshqalar moddiy vositalarni soz holda saqlashi, ta'mirlashi, shuningdek, binolarni ta'mirlashi;

Tomonlar imzolaydigan tegishli qabul qilish-topshirish dalolatnomasini rasmiylashtirgan holda. Buyurtmachidan binolarni (xonalarni), uskunalarni, jihozlarni, asboblarni, mebellarni, inventarlar va boshqalar moddiy vositalarni qabul qilib olishi;

Mazkur shartnomani bekor qilish haqida Buyurtmachini ikki oy oldin yozma ravishda ogohlantirishi. ushbu muddat tugaguniga qadar esa Buyurtmachiga xizmatlarni uzluksiz ko'rsatilishini ta'minlashi;

Mazkur shartnomaga asosan Xizmatlarni ko'rsatish ishlariga jalb etilgan xodimlarni o'qitishni (malakasini oshirishni) amalga oshirishi (talab etilgan hollarda);

Qonun hujjatlariga muvofiq boshqa majburiyatlar.

2.3. Buyurtmachi quyidagi huquqlarga ega:

Tovarlar (ishlar, xizmatlar) sifatli ishlab chiqarilishi (bajarilishi, ko'rsatilishi)ni talab qilish;

Autorserning faoliyatiga aralashmagan holda, shartnoma shartlarining bajarilishini nazorat qilish;

Shartnomani bekor qilish to'g'risida 10 kun oldin Autorserni yozma ravishda ogohlantirish. bunda ko'rsatilgan xizmatlarning qiymatini belgilangan tartibda to'lash;

Qonun hujjatlariga muvofiq boshqa huquqlar.

Buyurtmachi quyidagilarga majbur:

Bajarilgan ishlarning yig'ma dalolatnomasi va rasmiylashtirilgan hisob-faktura asosida ko'rsatilgan xizmatlar uchun amaldagi narxlar bo'yicha bir oyda kamida bir marta Xizmatlar haqini to'lashi;

Autorserga mazkur Shartnoma shartlarini bajarish doirasida binolarni (xonalarni), uskunalarni, jihozlarni, asboblarni, mebellarni, inventarlar va boshqa moddiy vositalarni vaqtincha foydalanishga berishi;

Qonun hujjatlariga muvofiq boshqa majburiyatlar.

### **III. Xizmatlar narxi va o'zaro hisob-kitoblar tartibi**

3.1. Mazkur shartnomaning ilovasiga muvofiq xizmatlar narxi 32.497.400 (uttiz ikki million to'rt yuzi to'qson etti ming to'rt yuz) so'mni tashkil etadi.

3.2. Autorser tomonidan ko'rsatilgan xizmatlar uchun o'zaro hisob-kitoblar bajarilgan ishlarning yig'ma dalolatnomasi va rasmiylashtirilgan hisob-faktura asosida ko'rsatilgan xizmatlarning amaldagi qiymati bo'yicha bir oyda kamida bir marta amalga oshiriladi.

3.3. Ko'rsatiladigan xizmatlarning amaldagi soni haqidagi ma'lumotlar va xizmatlarning amaldagi narxi asosida Buyurtmachi kundalik buyurtmaga muvofiq Autorser bilan birgalikda har o'n kunda, to'lanishi lozim bo'lgan summasi ko'rsatilgan, Autorser va Buyurtmachi tomonidan imzolanadigan bajarilgan ishlarning yig'ma dalolatnomasi tuziladi va hisob-faktura rasmiylashtiradi.

3.4. Buyurtmachi tomonidan amalda ko'rsatilgan xizmatlar narxi belgilangan tartibda rasmiylashtirilgan bajarilgan ishlar dalolatnomasi va hisob-faktura olingan vaqtdan boshlab, 10 bank kuni davomida Shartnomada belgilangan summadan ortiq bo'lmagan miqdorda to'lanadi.

3.5. Mazkur Shartnomaning ilovasida ko'rsatilgan, shartnomaning prognoz summasini hisoblash uchun xizmatlarning narxlari tomonlardan birining tashabbusi bilan qayta ko'rib chiqiladi.

### **IV. Tomonlarning majburiyatlari**

4.1. Autorser shartnoma majburiyatlarini o'z vaqtida bajarmagan hollarda, Buyurtmachiga muddati o'tkazib yuborilgan har bir kun uchun majburiyatning bajarilmagan qismining 0,5 foiz miqdorida penya to'laydi, bunda penyaning umumiy summasi ko'rsatilmagan xizmatlar oylik narxining 50 foizidan oshmasligi kerak.

4.2. Budget tashkiloti shartnoma majburiyatlarini o'z vaqtida bajarmagan hollarda, Autorserga muddati o'tkazib yuborilgan har bir kun uchun to'lanmagan summaning 0,4 foiz miqdorida penya to'laydi, bunda penyaning umumiy summasi to'lanmagan summaning 50 foizidan oshmasligi kerak.

4.3. Penya (jarima) to'lash Tomonlarning zimmasidagi majburiyatlarini bajarishdan yoki buzilishlarni bartaraf qilishdan ozod etmaydi.

4.4. Mazkur Shartnoma shartlarining bajarilmasligi yoki tegishli darajada bajarilmasligi uchun

Tomonlar O'zbekiston Respublikasining Fuqarolik kodeksi talablarida, «Xo'jalik yurituvchi subyektlar faoliyatining shartnomaviy-huquqiy bazasi to'g'risida»gi O'zbekiston Respublikasi Qonuni hamda O'zbekiston Respublikasining boshqa normativ-huquqiy hujjatlarida nazarda tutilgan javobgar bo'ladilar.

4.5. Buyurtmachiga har chorakda bir marotaba ko'rsatilayotgan xizmatlarning sifati, ijaraga berilgan bino va inshootlarning holatini monitoring o'tkazishga (autorsorning moliyaviy faoliyatiga aralashmagan holda) sharoitlar yaratish.

4.6. Tomonlarning Mazkur Shartnomada nazarda tutilmagan javobgarlik choralari O'zbekiston Respublikasi hududida amalda bo'lgan fuqarolik qonunchiligi normalariga muvofiq qo'llaniladi.

#### **V. Munozarali vaziyatlarni hal etish tartibi**

5.1. Mazkur Shartnomani bajarishda yuzaga kelishi mumkin bo'lgan nizolar va kelishmovchiliklar imkon qadar Tomonlar o'rtasida muzokara o'tkazish yo'li bilan hal etiladi.

5.2. Nizolar va kelishmovchiliklarni Tomonlar o'rtasida muzokara o'tkazish yo'li bilan hal etib bo'lmaydigan holatlarda. O'zbekiston Respublikasi qonunchiligida nazarda tutilgan kelishmovchiliklarni suddan oldin bartaraf qilish tartib-taomili amalga oshirilgandan so'ng ular O'zbekiston Respublikasi qonunchiligida belgilangan tartibda Iqtisodiy sudga ko'rib chiqish uchun beriladi.

#### **VI. Fors-major holatlar**

6.1. Tomonlar majburiyatlar qisman yoki to'liq bajarilmaganligi uchun, agar bunday holatlar yengib bo'lmay kuch, ya'ni tabiiy ofatlar, tabiiy va texnogen tushadigan favqulodda holatlar va alohida davr oqibati hisoblansa va davlatning tegishli organlari tomonidan tasdiqlansa, javobgarlikdan ozod qilinadi. Bunda mazkur shartnoma bo'yicha majburiyatlarni bajarish muddati mutanosib ravishda ushbu hodisalar ro'y bergan muddatga suriladi.

#### **VII. Yakunlovchi qoidalar**

7.1. Ushbu Shartnomaga har qanday o'zgartirish va qo'shimchalar faqat ular yozma shaklda rasmiylashtirilib, Tomonlarning vakolatli vakillari tomonidan imzolanganidan so'ng haqiqiy hisoblanadi. Mazkur Shartnomaning barcha ilovalari uning ajralmas qismini tashkil etadi.

7.2. Tomonlarning hech biri mazkur Shartnoma bo'yicha o'z huquq va majburiyatlarini boshqa Tomonning yozma shakldagi roziligisiz biror bir uchinchi tomonga berib yuborishi mumkin emas.

7.3. Ushbu shartnoma ikki nusxada tuzilgan. Ikki nusxasi aynan bir xil bo'lib, bir xil yuridik kuchga ega. Tomonlarning har birida mazkur Shartnomaning bir nusxasi bo'ladi.

#### **VIII. Shartnomaning amal qilish muddati**

8.1. Ushbu Shartnoma imzolangan paytdan kuchga kiradi va bir kalendar yili davomida yoki muddatidan oldin bekor qilinguniga qadar amal qiladi.

#### **IX. Korrupsiyaga karshi shartlar**

9.1. Tomonlar mazkur Shartnomaning amal qilish davrida o'z huquqlari va majburiyatlari bilan bog'liq ravishda O'zbekiston Respublikasining korrupsiyaga qarshi kurashishni tartibga soluvchi qonun hujjatlari normalarini buzishi mumkin bo'lgan har qanday choralar ko'rmasliklari yoki xatti-harakatlarni sodir yetmasliklari yuzasidan majburiyatlarini qattiq e'tirof yetgan holda, o'zaro hamkorlik madaniyatlarini darajada ta'minlash va korrupsiya holatlariga murosasiz kurashish choralari ko'radi.

#### **X. Tomonlarning manzili va bank rekvizitlari**

«Autorsorser»

Marjona Fayz Savdo Qurilish X/K

Manzil: Qarshi shahar

H/R 20208000005147031001

MFO 01119

INN 306897596

BANK: Ipak yuli Qarshi filiali

Rahbar: E. Chorshebiyev

M.U.

«Buyurtmachi»

Qarshi shahar tibbivoot birlashmasi

Qarshi shahar A.Navoiy 48-uy

H/R100022860104017073101054012


INN 201885333

MFO 00014

BANK: Markaziy

Rahbar: V.B. R. Usmonova

M.U.



*Handwritten signature in blue ink.*

## **YURIDIK AHAMIYATGA EGA HUJJATLARNING QONUN HUJJATLARIGA MUVOFIQLIGI TO‘G‘RISIDA HUQUQIY XULOSA**

### **1. Loyihaning turi:**

Fuqarolik shartnomaga oid. “Haq evaziga xizmat ko’rsatish shartnomasi”

### **2. Loyihaning nomi:**

“Qarshi shahar tibbiyot birlashmasi (buyurtmachi) va “**Marjona Fayz Savdo Qurilish**” X/K (xizmat ko’rsatuvchi) o’rtasida Qarshi shahar tibbiyot birlashmasiga **kir yuvish xizmati bilan ta’minlash uchun 32.497.400 so’mlik haq evaziga xizmat ko’rsatish haqida**” .

### **3. Loyiha ishlab chiquvchisi va kiritilgan sana haqidagi ma’lumot:**

Qarshi shahar tibbiyot birlashmasi boshlig’I v.v.b R.Usmonova, 2022-yil 05-may .

Loyihani tayyorlashda O‘zbekiston Respublikasining 29.08.1996-yildagi Fuqarolik Kodeksining 703-708-moddalari, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 15.02.2005-yildagi “Yengib bo’lmas kuch(fors-major) holatlarini tasdiqlovchi mehanizmni amalga kiritish haqidagi” №63-son qarori hamda 29.08.1998-yildagi “Xo’jalik yurituvchi subyektlar faoliyatini shartnomaviy-huquqiy bazasi to‘g‘risida”gi O‘RQ-670-I-sonli Qonunining 24-35-moddalariga muvofiq ishlab chiqilgan va uni qabul qilish maqsadga muvofiq.

**Qarshi shahar yuridik xizmat  
ko’rsatish markazi  
bosh yuriskonsulti**

**S.Muqumov**

2022-yil 06-may



# Протокол закупочной комиссии по конкурсу лот № 74972 на приобретение Услуги прачечных

Способ проведения электронный

Дата 29.04.2022

Время рассмотрения 29.04.2022 18:55

Конкурсная комиссия Карши шаҳар тиббиёт бирлашмаси (марказлашган), (Далее – Комиссия) в составе:

|                              |                                      |                                       |                                       |
|------------------------------|--------------------------------------|---------------------------------------|---------------------------------------|
| <b>Председатель комиссии</b> | ESHKUVATOV MIRZOXID<br>NURBOBOYEVICH | бош хисобчи                           | бош хисобчи                           |
| <b>Секретарь комиссии</b>    | SHOYMANOV SHAXBOZ<br>BURXON O'G'LI   | хужалик мудир                         | Карши шаҳар<br>тиббиёт<br>бирлашмаси  |
| <b>Член комиссии</b>         | SULTONOV RUSTAM<br>AZIMOVICH         | хисобчи                               | хисобчи                               |
| <b>Член комиссии</b>         | FAYZIYEV FARRUX<br>MURODULLAYEVICH   | хисобчи                               | хисобчи                               |
| <b>Член комиссии</b>         | BAXRAMOVA MOHIGUL<br>MAMARASULOVA    | бирлашма рахбари                      | бирлашма рахбари                      |
| <b>Член комиссии</b>         | UMAROV ILXOM<br>NEMATOVICH           | 6 оилавий<br>поликлиника бош<br>врачи | 6 оилавий<br>поликлиника бош<br>врачи |

Рассмотрев поступивших предложений со стороны участников по опубликованному объявлению на специальном информационном портале от 29.04.2022 года № лота 74972.

Метод оценки предложений – Бальный метод (Весовой коэф.технико-квалификационной части: 90.00 / Весовой коэф. ценовой части: 10.00)

Мин. балл: 50

Предмет закупки:

| Наименование товара<br>(работы, услуги) | Услуги прачечных |
|-----------------------------------------|------------------|
| Подробное описание                      | Услуги прачечных |
| Количество товара                       | 5 603.00         |
| Единица измерения                       |                  |
| Цена товара (услуги) за<br>единицу      | 6 000.00         |
| Стартовая сумма                         | 33 618 000.00    |
| Валюта                                  | UZS              |

По итогам рассмотрения поступивших предложений по технической части участникам присвоены следующие баллы:

Критерий №1 Sog'liqni saqlash muassasasi uchun shunga o'xshash ishda kamida 3 yil ish tajribasi хакида маълумот ёки шартнома илова

Тип: Текстовое значение

Описание: Буюртмачи тавсифига кўра

Обязательность: Критично

| Наименование<br>участника | Макс<br>балл | Значение<br>участника | Балл<br>участника | Тип<br>оценки | Примечание | Причина |
|---------------------------|--------------|-----------------------|-------------------|---------------|------------|---------|
| MARJONA FAYZ              | 20           | талаб килинган        | 15                | Экспертная    |            |         |

| Наименование участника | Макс балл | Значение участника                | Балл участника | Тип оценки | Примечание | Причина |
|------------------------|-----------|-----------------------------------|----------------|------------|------------|---------|
| SAVDO QURILISH XK      |           | файл илова килинди                |                |            |            |         |
| PERFECT - SERVICE МЧЖ  | 20        | талаб килинган файл илова килинди | 15             | Экспертная |            |         |

Критерий №2 Ishtirokchining mijozning talablari bilan ish bajarilishi to'g'risidagi kafolat xati

Тип: Текстовое значение

Описание: Буюртмачи тавсифига кўра

Обязательность: Критично

| Наименование участника         | Макс балл | Значение участника                | Балл участника | Тип оценки | Примечание | Причина |
|--------------------------------|-----------|-----------------------------------|----------------|------------|------------|---------|
| MARJONA FAYZ SAVDO QURILISH XK | 10        | талаб килинган файл илова килинди | 10             | Экспертная |            |         |
| PERFECT - SERVICE МЧЖ          | 10        | талаб килинган файл илова килинди | 10             | Экспертная |            |         |

Критерий №3 ЭЯТТ кийматининг камида 20% микдорида айланма маблагларга эга булиш (Вазирлар Махкамасининг 05.02.2021 йилдаги 55-сонли қарорининг 29-банди) ҳамда солиқ қарздорлиги мавжуд эмаслиги тугрисида маълумот

Тип: Текстовое значение

Описание: Буюртмачи тавсифига кўра

Обязательность: Критично

| Наименование участника         | Макс балл | Значение участника                | Балл участника | Тип оценки | Примечание | Причина |
|--------------------------------|-----------|-----------------------------------|----------------|------------|------------|---------|
| MARJONA FAYZ SAVDO QURILISH XK | 20        | талаб килинган файл илова килинди | 15             | Экспертная |            |         |
| PERFECT - SERVICE МЧЖ          | 20        | талаб килинган файл илова килинди | 10             | Экспертная |            |         |

Критерий №4 Махаллий ишлаб чиқарувчи эканлиги тўғрисида маълумот

Тип: Текстовое значение

Описание: Буюртмачи тавсифига кўра

Обязательность: Критично

| Наименование участника         | Макс балл | Значение участника                | Балл участника | Тип оценки | Примечание | Причина |
|--------------------------------|-----------|-----------------------------------|----------------|------------|------------|---------|
| MARJONA FAYZ SAVDO QURILISH XK | 20        | талаб килинган файл илова килинди | 20             | Экспертная |            |         |
| PERFECT - SERVICE МЧЖ          | 20        | талаб килинган файл илова         | 20             | Экспертная |            |         |

| Наименование участника | Макс балл | Значение участника | Балл участника | Тип оценки | Примечание | Причина |
|------------------------|-----------|--------------------|----------------|------------|------------|---------|
|                        |           | килинди            |                |            |            |         |

Критерий №5 zamonaviy uskunalar, malakali mutaxassislarning etarli tarkibiga ega bo'lganligi

Тип: Текстовое значение

Описание: Буюртмачи тавсифига кўра

Обязательность: Критично

| Наименование участника         | Макс балл | Значение участника                | Балл участника | Тип оценки | Примечание | Причина |
|--------------------------------|-----------|-----------------------------------|----------------|------------|------------|---------|
| MARJONA FAYZ SAVDO QURILISH XK | 30        | талаб килинган файл илова килинди | 25             | Экспертная |            |         |
| PERFECT - SERVICE МЧЖ          | 30        | талаб килинган файл илова килинди | 15             | Экспертная |            |         |

Оценка участников финансовой части составила:

| Наименование участника         | Стартовая сумма | Предлагаемая сумма | Дата предложения    | Оценка стоимости (балл) |
|--------------------------------|-----------------|--------------------|---------------------|-------------------------|
| PERFECT - SERVICE МЧЖ          | 33 618 000.00   | 33 057 700.00      | 29.04.2022 10:59:21 | 9.83                    |
| MARJONA FAYZ SAVDO QURILISH XK | 33 618 000.00   | 32 497 400.00      | 29.04.2022 00:07:28 | 10.00                   |

Итоговая оценка участников включая финансовой части составила:

| Наименование участника         | Общий балл по технической части | Общий балл по финансовой части | Итоговый балл |
|--------------------------------|---------------------------------|--------------------------------|---------------|
| PERFECT - SERVICE МЧЖ          | 63                              | 9.83                           | 72.83         |
| MARJONA FAYZ SAVDO QURILISH XK | 76.5                            | 10                             | 86.5          |

Закупочная комиссия по конкурсу лот № 74972 от 29.04.2022 года на приобретение Услуги прачечных определила победителем:

MARJONA FAYZ SAVDO QURILISH XK  
306897596

и резервный исполнитель: PERFECT - SERVICE МЧЖ (307362613)

Проголосовали

| Комиссия              | Ф.И.О.                            | Голосование | Комментарии |
|-----------------------|-----------------------------------|-------------|-------------|
| Член комиссии         | UMAROV ILXOM NEMATOVICH           | Согласен    |             |
| Председатель комиссии | ESHKUVATOV MIRZOXID NURBOBOYEVICH | Согласен    |             |
| Член комиссии         | SULTONOV RUSTAM AZIMOVICH         | Согласен    |             |

|                      |                                   |          |  |
|----------------------|-----------------------------------|----------|--|
| <b>Член комиссии</b> | FAYZIYEV FARRUX MURODULLAYEVICH   | Согласен |  |
| <b>Член комиссии</b> | BAXRAMOVA MOHIGUL<br>MAMARASULOVA | Согласен |  |

Протокол закупочной комиссии подписан посредством ЭЦП